

Mamadjanova Nozimaxon Azimxodjayevna
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
nozimaxonmamadjanova4@gmail.com

O'QUVCHILARDA KOMMUNIKATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida darsliklarni yaratishga qo'yilgan mezon "4K" modeli ta'riflangan. Shuningdek, ushbu model asosida o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan didaktik o'yinlar sinflar kesimida tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: 4K modeli, kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativlik, kritik fikrlash.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ИГРЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В данной статье описана модель «4К» для создания учебников в общеобразовательных школах. Также на основе данной модели на занятиях были рекомендованы дидактические игры, направленные на развитие коммуникативных навыков учащихся.

Ключевые слова: модель 4К, сотрудничество, общение, творчество, критическое мышление.

DIDACTIC GAMES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' COMMUNICATION SKILLS

Abstract: This article describes the "4K" model for creating textbooks in secondary schools. Also, based on this model, didactic games aimed at developing students' communication skills were recommended in the classroom.

Keywords: 4K model, collaboration, communication, creativity, critical thinking.

Kirish. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashayotgan davrida jamiyatda rivojlanayotgan zamonaviy tendentsiyalar umumta'lim maktabi o'quvchilariga ham yangi talablarni qo'yishi bilan baholanadi. Maktabgacha va maktab ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan bo'lib, bu borada boshlang'ich sinf darsliklari hamda barcha sinflar uchun ingliz tili darsligi xorijiy tajribalar asosida yangidan "4K" modeli asosida tayyorlandi.

Metod. "4K" modeli bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, to'rt asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.

Kollaboratsiya – darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam berishi ko'zda tutilgan bo'lib, bunda o'quvchilar sinfdoshlari bilan hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga xizmat qiladi.

Kommunikativlik – darsliklar o'quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda o'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma'lumotni etkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganadilar.

Kreativ fikrlash – darsliklar ijodiy fikrlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadilar, innovasion echimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Kritik fikrlash – ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga analitik nuqtai nazardan yondashishni o'rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtai nazarini shakllantiradilar [4].

Natija. Ushbu maqolada biz "4K" modelining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan kommunikatsiyada didaktik o'yinlarning o'rnini haqida so'z yuritmoqchimiz. Til ta'limi jarayonida didaktik o'yinlarning roli nihoyatda katta bo'lib, til muhiti bo'lmagan joylarda sun'iy muloqot vaziyatlari yaratilib, til o'rganuvchilarda erkin so'zlashish ko'nikmalarini shakllantirishda ularning amaliy ahamiyati ulkandir. Ta'limiy o'yinlar guruhlariga bo'linib ishlashda hamda passiv, tortinchoq o'quvchilarni faollashtirishda muhim o'rin tutadi. Quyida ingliz tilini o'rganish davrida o'quvchilarga yangi mavzuni o'tish va mustahkamlash jarayonida ona tili interferentsiyasini bartaraf etish uchun moslashtirilgan va takomillashtirilgan didaktik o'yinlari tavsiya etilgan.

1-jadval

Ingliz tilini o'rganishda ona tili interferentsiyasini bartaraf etishga tavsiya etilgan ta'limiy o'yinlar

O'yin nomi	Tavsiya etilayotgan sinf	Mezonlar	Mavzular	O'quvchilarda rivojlanadigan kompetentsiyalar
"Telefon" o'yini	8-9-sinflar	Taqdim etilayotgan qoidani gap tarzida aytish	Vaqt predloqlari	Fonetik va grammatik kompetentsiyalar
"Omofon baliq oviga bor" o'yini.	2-4-sinflar	Yozilishi turlicha, ammo talaffuzi bir xil yoki bir biriga yaqin bo'lgan so'zlarni o'qiy olish	Unli va undosh tovushlar talaffuzi	Tinglab tushunish, o'qish, gapirish hamda fonetik kompetentsiyalar
"Yugurib yozis diktanti" o'yini	5-9-sinflar	Berilgan qoidadagi so'z va so'z birikmalarini to'g'ri talaffuz etish	Fe'l zamonlari	O'qish, gapirish, orfografik va fonetik kompetentsiyalar
"Talaffuz mozaikasi" o'yini	3-4-sinflar	Berilgan so'zlarni to'g'ri o'qiy olish	Unli tovushlar	O'qish va fonetik kompetentsiyalar
"Kichik sheriklar" o'yini	2-3-sinflar	Tinglagan so'zni to'g'ri tushunish va fahmlash	Diftonglar va digraflar talaffuzi	Tinglab tushunish va fonetik kompetentsiyalar
"To'rttasi bir qatorda" o'yini	4-6-sinflar	Berilgan so'zlarni to'g'ri o'qish	Unli tovushlar talaffuzi	O'qish va fonetik kompetentsiyalar
"Bingo" o'yini	4-6-sinflar	Berilgan so'zlarni tinglash va fahmlash	Unli va undosh tovushlar talaffuzi	Tinglab tushunish va fonetik kompetentsiyalar
"Qofiyadosh juftliklar" o'yini	5-9 –sinf	Berilgan so'zni o'qish va qofiyadosh so'z topish	Unli va undosh tovushlar talaffuzi	O'qish va fonetik kompetentsiyalar
"Bekat" o'yini	2-6-sinflar	Aytilgan so'zni to'g'ri fahmlash va so'zda ishtirok etgan tovushni topish	Unli va undosh tovushlar talaffuzi	Tinglab tushunish va fonetik kompetentsiyalar

Shuningdek, quyida ayrim interfaol o'yinlarni tashkil etish masalasiga ham to'xtalmoqchimiz. "Telefon" o'yinida o'quvchilar ikki guruhga ajralishlari so'raladi. Guruhning eng boshida turgan o'quvchi kotiba vazifasini bajaradi. O'qituvchi har bir guruh oxiridagi o'quvchiga grammatik materialning qoidasini bitta gap bilan qulog'ida aytadi. O'quvchi eshitgan qoidasini oldida turgan o'quvchiga, u o'quvchi esa yonidagi o'quvchining qulog'iga aytadi. Shu tarzda bu qoida oxiri kotiba tomonidan yozib olinib, o'qituvchi tomonidan to'g'ri yoki noto'g'riligi tekshiriladi [3; 18-b.].

"Omofon baliq oviga bor" o'yini. Bu o'yin juftlikda o'ynaladi. Juftliklar uchun yozilishi turlicha, ammo o'qilishi bir xil bo'lgan so'zlar ro'yxati o'qituvchi tomonidan tuziladi. So'ng har bir so'zni bitta kartochkaga yozib, o'quvchilarga tarqatiladi. O'quvchilar qo'llaridagi kartochkaga qarab, so'zni o'qiydilar va shu so'zga o'xshab talaffuz etiladigan so'z kimda borligini so'raydilar. Kimda shu so'zga o'xshash o'qiladigan so'zli kartochkasi mavjud bo'lsa, qo'lini ko'taradi. Ular juftlikni hosil

qilib baliq oviga ketishadi [2; 55-b.]. Masalan, o'qituvchi quyidagi so'zlarni kartochkalarga oldindan yozib, tayyorlab qo'yadi.

Like	Lake	Four	For
Sing	Thing	Too	Two
Buy	Bye	Tree	Three
Meat	Meet	Sun	Son
My	May	Ear	Hair
Where	Were	I	Eye

"Yugurib yozish diktanti" o'yini tushuntirilishi oson bo'lgan mavzularni taqdim etishda samarali hisoblanadi. Bunda o'quvchilar uch guruhga bo'linadilar. Masalan, 5-, 6-, 7-sinflarda fe'l zamonlarining biri taqdim etiladigan holatda birinchi guruh biror zamonning yasallishini, ikkinchi guruh ishlatilishini, uchinchi guruh zamonni bildiruvchi ravishlarni yozishlari tushuntiriladi. O'quvchilar o'rinlaridan qator bo'lib turadilar. Har bir guruh o'zi uchun bir kotiba saylaydi. Kotiba guruh a'zolari tomonidan aytilgan so'zlarni diktant sifatida yozib turadi. O'quvchilar xonaning uch tomoniga qoida yozilib, yopishtirilgan qog'ozlar oldiga borib, undan bir so'zni o'qib, kotibaga aytib turib yozdirishlari lozim [1; 18-b.].

"Talaffuz mozaikasi" o'yinida o'quvchilar bir xil unli tovush bilan talaffuz qilinadigan so'zlarni bir-birlariga bog'lashlari lozim bo'ladi. O'qituvchi oldin taqdim etayotgan tovushiga mos so'zlardan 10x6 jadvalini ishlab chiqadi. O'quvchilar guruhlariga bo'linib, har bir so'zni talaffuz qilib, taqdim etilgan tovush mavjud bo'lgan so'zlarni bir-biriga bog'lab, yo'lak hosil qiladilar. So'zlarni tez va to'g'ri bog'lagan guruh g'olib teb topiladi [2; 55-b.]. Masalan, [ei] tovushini mustahkamlash uchun ushbu mashqni berish mumkin.

Name	Three	Five	Bag	Blue	Nose	Eye	Cool	Hare	Plum
Hello	Baby	Six	Book	yellow	Eight	Ear	Late	bear	Face
Are	Two	Plane	Is	Seven	Pink	Make	Cold	Tasty	She
Great	One	My	Grape	Red	Game	Hair	Hot	Lion	He
Good	From	Pen	This	Train	White	Doll	Cow	Duck	They

So'ng o'quvchilar o'rgangan tovushlariga mos bo'lgan ona tilidagi so'zlarni birma-bir aytib chiqadilar (agar mavjud bo'lsa). Ushbu o'yin boshlang'ich sinflarda fonetik interferentsiyani bartaraf etishda qo'llaniladi. Ushbu o'yinni boshlang'ich sinflarda barcha tovushlarni mustahkamlashda moslashtirib qo'llash mumkin.

"Kichik sheriklar" o'yinida o'qituvchi o'quvchilarni ikki jamoaga ajratadi. Ikki jamoa o'rinlaridan turib, ikki qatorni hosil qiladilar. O'qituvchi devorga yoki doskaga talaffuzi bir-biriga yaqin so'zlarni yonma-yon qo'yib, ularning birini talaffuz etadi. Ikki jamoadan bir o'quvchi chiqib, eshitgan so'zini ko'rsatib keladi. O'quvchilardan qaysi biri to'g'ri so'zni ko'rsatsa, ushbu jamoaga ball qo'yib boriladi [2; 38-b.]. Bu o'yinda o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmalari shakllantiriladi va uning vositasida fonetik interferentsiyani bartaraf etishga erishish mumkin.

"To'rttasi bir qatorda" o'yini. Ushbu o'yinda sinf o'quvchilari uch yoki to'rtta o'quvchidan iborat guruhga ajratiladi. O'quvchilarga turli so'zlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Har bir guruhga kartochkalar tarqatilib, har bir guruhga bitta tovush beriladi. O'quvchilar berilgan tovushga qarab, 4 ta so'zni ketma-ketlikda qo'yib chiqadilar. Ushbu vazifani bajargan guruh g'olib deb topiladi [2; 38-b.]. Bunday mashqlar o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini shakllantirish orqali fonetik interferentsiyani bartaraf etishga yordam beradi.

[ei]	Name	Pencil	Face	Game	book	Ball	Baby
[e]	Ten	Pen	Album	Hen	time	Mother	Seven
[æ]	Album	Apple	Good	Cat	great	Bag	Pencil
[i]	He	Big	Doll	Six	boy	Is	Pink
[ou]	Note	Boat	So-so	Nose	from	House	Hot

“Bingo” o‘yini. “4x4 Bingo” o‘yinida tarqatma material o‘qituvchi tomonidan tayyorlanadi va o‘quvchilarga tarqatiladi. O‘qituvchi mustahkamlanayotgan tovushni aytadi, o‘quvchilar esa aytilgan tovush ishtirok etgan so‘zni belgilashadi. O‘quvchilarning bingo kartochkalariga 4 ta so‘z ketma-ket gorizontal, vertikal yoki diagonal shaklda belgilangan bo‘lsa, o‘sha o‘quvchi g‘olib bo‘ladi. So‘ng belgilangan so‘zlar tekshiriladi [2; 70-b.]. Quyida [i:] tovushiga oid misoni beramiz:

He	Boy	Girl	House
Apple	She	Pear	Orange
Tomato	Cabbage	Meat	Blue
Black	Hot	Cold	We

“Qofiyadosh juftliklar” xotira o‘yinida o‘qituvchi name / game, box/ fox, tick / stick kabi qofiyadosh so‘zlar kartochkasini yasaydi va ularni orqa tomoni bilan qo‘yadi. O‘quvchilar navbatma-navbat kartochkalarning birini olib, berilgan so‘zga qofiyadosh so‘z topishlari kerakligi tushuntirildi [2; 36-b.]. Bunday o‘yinlar o‘quvchilarning o‘qish va talaffuz qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga ularning xotiralarini mashq qildirish uchun ham xizmat qiladi.

“Bekat” o‘yinida xonaning turli tomonlariga mustahkamlanayotgan tovushlar qog‘ozga yozib, yopishtirib chiqiladi. Barcha o‘quvchilar o‘rtaga yig‘iladilar. O‘qituvchi biror so‘z aytgach, o‘sha so‘zda ifodalanayotgan tovush oldiga borishlari kerak bo‘ladi. Agar ular noto‘g‘ri tovush oldiga borsalar, o‘yinni tark etadilar [2; 36-b.].

Xulosa. Bu kabi o‘yinlar o‘quvchining tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantiradi, chunki o‘quvchilar to‘g‘ri talaffuz qilishda avval, to‘g‘ri eshitishni o‘rganishlari uchun xizmat qiladi. Aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, “4K” modeli zamonaviy yondashuvlardan biri bo‘lib, ona tili ta‘sirida namoyon bo‘ladigan interferentiv xatolarni yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni oldindan ogohlantirib borishga, ularni bartaraf etishga qaratilgan mashq va topshiriqlarni ishlab chiqish va ularni ta‘lim jarayonida muayyan izchillik bilan qo‘llash tillararo interferentsiyani bartaraf etishga, o‘rganilayotgan til ko‘nikma-malakalarning mustahkam bo‘lishiga zamin yaratadi. Maktabdagi har bir dars o‘quvchilar faqat fan mazmunini o‘zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. Yangi avlod darsliklari esa o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantiribgina qolmay, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ularda shakllantirishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Demidova V., Khan S., Kurbanov O. English Teacher Training Course. – T.: British Council, 2011. – 286 p.
2. Hancock M. Pronunciation Games. – Cambridge: University Press, 1995. – 108 p.
3. Moldabaeyeva K.E. Using Different Types of Phonetic Exercises in English Lessons. http://www.rusnauka.com/29_NPM_014/Philologia/1_177418.doc.htm
4. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/barchasi-maktab-partasidan-boshlanadi-boshlangich-sinfda-4k-modeli-zamonaviy-talimga-innovation-yondashuv>